

5-Iyun, 2026-yil

**KICHIK BIZNES SUB‘YEKTLARI UCHUN SOLIQ MA‘MURCHILIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO‘LLAB-  
QUVVATLASHNING YANGI MEXANIZMLARI**

*Narpay tuman adliya bo‘limi yuridik xizmat ko‘rsatish markazi boshlig‘i*

**Mardiyev Mexriddin.**

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda tadbirkorlik sub‘yektlari uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ularning moliyaviy yukini kamaytirish hamda davlat organlari bilan munosabatlarni soddalashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-mayda qabul qilingan “Kichik biznes sub‘yektlarining o‘sishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma‘muriy shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi PF–100-son Farmoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur Farmon bilan kichik biznes sub‘yektlari uchun soliq solish va soliq ma‘murchiligi sohasida qator yengilliklar joriy etildi. Jumladan, 2026-yil 1-iyundan soliq solishning umumbelgilangan tartibiga o‘tish uchun belgilangan chegaraviy miqdor bazaviy hisoblash miqdorining 12 ming baravari etib belgilandi. Bu esa tadbirkorlarga soddalashtirilgan soliq rejimidan uzoqroq muddat foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub‘yektlari uchun qator qo‘shimcha qulayliklar belgilandi. Xususan, alkogol va tamaki mahsulotlarini sotishda naqd pul to‘lovlarini qabul qilishga ruxsat berildi, umumiy ovqatlanish sohasida ayrim toifadagi xodimlarni mobil ilova orqali soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirish imkoniyati yaratildi. Bundan tashqari, mazkur sub‘yektlarga to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘ining 40 foizini qaytarish tartibi joriy etildi. Farmon bilan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va to‘lashning soddalashtirilgan tartibi ham nazarda tutildi. 2026-yil 1-iyundan 2030-yil 1-yanvarga qadar umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarga mazkur tartibni ixtiyoriy tanlash huquqi berildi. Bunda QQS stavkasi barcha aylanmalarga nisbatan 6 foiz etib belgilanishi, foyda solig‘i stavkasi esa 0 foiz miqdorida qo‘llanilishi nazarda tutilgan. Shu orqali tadbirkorlik sub‘yektlarining hisob-kitob ishlari sezilarli darajada yengillashtiriladi.

2027-yil 1-yanvardan alkogol mahsulotlarini chakana sotish hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlar birlashtirilishi va uning stavkasi BHMning 10 foizi etib belgilanishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi va soliq maslahatchilari xizmatlarini jalb qilish xarajatlarini ikki barobar oshirilgan holda chegirish imkoniyati tadbirkorlarning malakali mutaxassislar xizmatidan kengroq foydalanishiga xizmat qiladi.

Ma‘muriy yukni kamaytirishga qaratilgan choralar ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, QQS to‘lovchisi guvohtomasini vaqtincha to‘xtatib turish tartibi bekor qilindi hamda import operatsiyalarini amalga oshiruvchi ayrim sub‘yektlarni majburiy tartibda

5-Iyun, 2026-yil

QQS to‘lovchisi sifatida e‘tirof etish amaliyoti tugatildi. Shuningdek, soliq xavfi darajasi past bo‘lgan hollarda QQSning salbiy farq summasini qaytarish jarayonlarida inson omilini qisqartirish nazarda tutildi.

Kichik biznes sub’yektlariga nisbatan ishonch tamoyilini kuchaytirish maqsadida 2028-yil 1-yanvarga qadar ularga soliq organlarining axborot tizimi orqali aniqlangan huquqbuzarlik alomatlarini mustaqil ravishda bartaraf etish imkoniyati berildi. Bu davrda belgilangan miqdorlar doirasida soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvlarini o‘tkazmaslik tartibi joriy etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, PF–100-son Farmon kichik biznes sub’yektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning soliq yukini kamaytirish va davlat organlari bilan munosabatlarini soddalashtirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Unda nazarda tutilgan soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan hisob-kitob tartiblari hamda ma‘muriy to‘siqlarni bartaraf etish choralari tadbirkorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga xizmat qiladi.